

RAQAMLI MOLIYAVIY XIZMATLAR

Raqamli moliyaviy xizmatlar nima?

- Raqamli moliyaviy xizmatlar — bu bank operatsiyalarini mobil ilova va internet orqali masofadan turib, qulay va xavfsiz amalga oshirish usulidir.
- Kartalar orasida pul o'tkazish
- Kommunal, internet va telefon to'lovlarini amalga oshirish
- Bank hisobini boshqarish, onlayn omonat ochish va kredit olish
- Mablag' harakati haqida SMS yoki push-xabar olish
- **Afzalliklar:**
 - 24/7 foydalanish mumkin
 - Navbatsiz, bankka bormasdan
 - Himoyalangan va shaffof xizmatlar

Mobil banking:

- ✓ Online omonatlar
- ✓ Byudjet to'lovlari
- ✓ Aloqa operatorlari
- ✓ Kommunal to'lovlar
- ✓ Online mikrokreditlar
- ✓ Davlat xizmatlari
- ✓ Kredit to'lash
- ✓ Online konvertatsiya
- ✓ Boshqa to'lovlar

To'lov tashkilotlari mobil ilovalari



- Ta'lim
- Dam olish va o'yin
- Xorijiy bank kartalarini to'ldirish
- Moliyaviy xizmatlar
- Salomatlik
- P2P
- Boshqalar

OMONAT-PUL MABLAG'LARINI SAQLASH, JAMG'ARISH VA KO'PAYTIRISH IMKONIYATLARI



Omonatlarni mobil ilovalar yordamida onlayn tarzda ochish mumkin

Onlayn omonatlarni ochishda e'tibor qaratish kerak:

✓ Bank foiz stavkasi

✓ Oddiy foiz stavkasi

✓ Omonatni muddatidan oldin
qaytarib olish imkoni

✓ Omonat joylashtirish muddati

✓ Mablag'larni yechib olish/to'ldirish
imkoniyatlari

✓ Murakkab foiz stavkasi
(kapitalizatsiya)

Kreditni onlayn tarzda rasmiylashtirish — zamonaviy va qulay yechim!

Bunda bankka borish, hujjatlar bilan yugurish yoki navbatda turish shart emas. Onlayn kredit xizmatlari orqali siz:

- Smartfon yordamida
- Internet orqali
- 24/7 rejimda

quyidagi imkoniyatlarga ega bo'lasiz:

- Kreditga ariza topshirish
- Hujjatlarni elektron shaklda imzolash
- Qarorni masofadan turib qabul qilish
- Mablag'ni to'g'ridan-to'g'ri kartaga olish

MOLİYAVİY XAVFSIZLIK

Raqamli xavfsizlik nima?

Shaxsiy raqamli xavfsizlik — bu shaxsiy moliyaviy ma'lumotlarni internetdagi xatarlardan himoya qilish uchun shaxsning xarakati.

Maqsad:

- Firibgarlikning oldini olish
- Shaxsiy ma'lumotlarni saqlash
- Hisoblarning xavfsizligini ta'minlash

Tahdidlar:

- Soxta qo'ng'iroqlar
- Fishing havolalar
- Soxta videolar va h.k.

Raqamli xavfsizlik — raqamli moliyadan foydalanishda eng muhim yondashuv.

Parollar va autentifikatsiya

Parol — shaxsiy ma'lumotlarni himoya qiluvchi kalit. Uni to'g'ri tanlash juda muhim.

Ishonchli parol qanday bo'lishi kerak?

- Kamida 8 ta belgi
- Harf, raqam va maxsus belgilar aralashmasi
- Qiyin kalit so'zlar

Autentifikatsiya nima?

- Ilovani ochishda PIN-kod, SMS-kod yoki Face ID so'rash orqali shaxsni tasdiqlash.

Parol bilan PIN kodni farqi.

- Parol - qurilma yoki veb-saytda birinchi marta avtorizatsiya qilinganda ishlatiladi.
- PIN kod - qurilmaga har bir kirishda ishlatiladigan qisqa raqamli kod.

Tavsiyalar:

- Har xizmat uchun alohida parol
- Parollarni yozib qo'ymaslik
- 2 bosqichli autentifikatsiyani yoqish

HOZIRGI KUNGA KELIB ENG KENG TARQALGAN FIRIBGARLIK USULLARI



**Soxta
qo'ng'iroq**



**Soxta havola
(fishing)**



**Zararlangan
ilova**



**Shubhali video
(deepfake)**

SOXTA QO'NQIROQ

- Firibgar internet tarmog'idan foydalanib mintaqaga tegishli (+998) telefon raqami orqali qo'ng'iroq qilib, o'zini **Markaziy bank, tijorat banki yoki to'lov tashkiloti xodimi sifatida** tanishtirish orqali fuqaroning ismi-familiyasi va bank karta ma'lumotlarini aytib, uning ishonchiga kiradi.

- So'ng fuqaroning bank kartasidan pul echib olinayotganligi, mobil ilovadagi akkauntiga hujum bo'lganligi yoki nomiga kredit rasmiylashtirilayotganligi to'g'risida aytib, unga psixologik bosim o'tkazadi va agar uning ko'rsatmalarini bajarsa hammasi ijobiy hal qilinishi haqida ma'lumot beradi. Natijada fuqaro firibgardan yordam so'raydi.

- Ushbu holatda firibgar fuqaroning ishonchini yanada qozonish uchun uning Telegram akkauntiga soxta hujjatlarni yuboradi.
- Bunda firibgarning asosiy maqsadi — fuqaroning bank kartasi va mobil ilovasidagi akkauntiga kirish huquqini beruvchi login, parol hamda bir martalik tasdiqlovchi kod (OTP)ni qo'lga kiritish.



SOXTA HAVOLA (FISHING)

Soxta havolalar parollar, karta raqamlari, bank hisoblari va boshqa maxfiy ma'lumotlarni o'g'irlash uchun yaratiladi.

Mazkur firibgarlik turi bilan bog'liq asosiy muammo shundaki, soxta saytlarni asl nusxalardan ajratish qiyin.

Soxta havolalarni quyidagi belgilar orqali tanib olish mumkin:

- biror mashhur kompaniya nomi qo'shilgan, uzun internet manzil (domen nomi)
- orfografik xato ko'pligi va noqulay dizayn
- bank kartalari va tasdiqlash kodlarini olish uchun mo'ljallangan yagona sahifa



REAL FAKT

Сегодня

Ассалам алейкум, Gentra соат ва рамкси билан янги сотилади? 17:38

Ассалому алейкум, ха сотилади 17:40 ✓

Можно будет яндекс доставку в Алмалык оформить? Я сам все оформлю и оплачу, вы получите деньги на карту и к вам потом курьер подъедит и заберет 17:54

Так доставка вам дороже обойдется тем более в такую погоду 17:47 ✓

Ничего, я оплачу. Понравился 17:51

Вы согласны? 17:51

Где именно вы живете? Адресс? 17:53 ✓

Алмалык, Ойдин хаёт, дом 5 17:54

Не стоит. Давайте я сейчас оплачу и курьер к вам сам приедет заберет 18:00

Хорошо, что я должен сделать? 18:03 ✓

<https://yandex-uz.securewallet.business/cash26387954>

Быстрая доставка для вашего бизнеса — Яндекс.Доставка
Gentra соат ва рамкси билан янги
Получение средств

Вот я оформил доставку, зайдите подтвердить и получите деньги. Потом с вами свяжется курьер и заберет товар 18:04

Информация о платеже

Gentra соат ва рамкси билан янги

Uzcard HUMO

Безопасность обработки платежей пластиковыми картами гарантирует Банк-эквайринг.

Номер карты

0000 0000 0000 0000

Срок действия: Год Номер телефона

01 20 +998

450 000 UZS

Ваше данные защищены

Назад Подтвердить

TELEGRAM IJTIMOIY TARMOG'IDAGI SOXTA HAVOLALAR

Not Secure — yordam-pulfond.buzz

Ижтимоий ҳимоя
ягона реестри

Ўзбекистон Республикаси
Президентининг
РК-258-қарорига мофик барча
Ўзбекистон Фуқороларига
бир марталик моддий ёрдам пули
берилади

Президент қарори

Ўзбекистон Республикаси
Президентининг
РК-258-қарорига мофик барча
Ўзбекистон Фуқороларига
бир марталик моддий ёрдам пули
берилади

Хурматли Ўзбекистон фуқоролари Мамлакатда
ишсизлик шунингдек кўплаб ижтимоий муаммолар

Банк картага **** 2734
Сумма: 6 700 000 сўм
ёрдам пули отказилди

Рақмнинг чап тилишдан чап тилишдан чап тилишдан

Not Secure — yordam-pulfond.buzz

ЁРДАМ ПУЛИ 6 700 000 сўм

Ёрдам пулини Uzcard ва Nimo ва барча турдаги
карталарига ўтказиб олишингиз мумкин, пулларни
картангизга ўтказиб олиш учун қуйидагиларга
амал қилишингиз керак. Агарда тушинмовчиликлар
болса операторга ёзишингиз мумкин!!!

- 1 Пастда қорсатилган Ёрдам пули учун
анкета тоқдириш тугмасини босинг!
- 2 Шахсий маълумотингизни киритасиз яни
анкетани хатосиз тоқдирасиз!
- 3 Карта рақамингизни киритиб
6 700 000 сўм моддий ёрдам пулини
картангизга ўтказиб оласиз!

Ёрдам пули учун анкета
тоқдириш

комментариялар

Темурбек Мансуров
Gap yo'q lekin 100% rost ekan kin lshonmasa
manga yozsin ko'rsataman chekni
26 сек. назад

Бобур Шукуров
Роҳмат мен олдим 6.700.000 сом картамга
ўтказиб беришди

Not Secure — yordam-pulfond.buzz

Темурбек Мансуров
Gap yo'q lekin 100% rost ekan kin lshonmasa
manga yozsin ko'rsataman chekni
26 сек. назад

Бобур Шукуров
Роҳмат мен олдим 6.700.000 сом картамга
ўтказиб беришди
3 сек. назад

Aziza Nurmetova
Салом хаммага 134.000 НДС учун толав
килиб қорқандим хамаси роҳмат экан
6.700.000 сом ташаб беришди картамга
катта роҳмат
12 сек. назад

Сарвар Суюнов
Assalomu alaykum, ishongim kemayapdi rost
ekan katta roxmat kartamga tashab berishdi
katta roxmat Allah rozi bo'lsin
26 сек. назад

Дурдона Бектурдиева
Салом хаммага, 134 минг комиссия НДС
толавини амалга ошириб ёрдам пулини
олдим 6.700.000 млн катта роҳмат
хаммаси ишончи экан
14 сек. назад

Not Secure — yordam-pulfond.buzz

Ижтимоий ҳимоя
ягона реестри

Ёрдам пули ажратилди 6 700 000 сўм

Биз сиз учун 24/7 ишлаймиз!

*** Хамкор Банк Онлайн ***

Квитанция

Ёрдам олувчи: **BU YOLG'ON**

Паспорт серия: I-SHON-MANG-LAR!!!!


ёрдам берувчи: Ёрдам Фонди

Ёрдам пули: **6 700 000 сўм**

Моддий ёрдам пулини олиш учун ушбу
ёрдам фонди иловасини Тарқатиш
туғмасини босиб 15 та яқинларизга яни
танишларизга юборинг.

Тарқатиш 0%

SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYASI YORDAMIDA YARATILGAN VIDEOMUROJAAT



ZARARLANGAN ILOVA

Soxta havolalar parollar, karta raqamlari, bank hisoblari va boshqa maxfiy ma'lumotlarni o'g'irlash uchun yaratiladi.

Mazkur firibgarlik turi bilan bog'liq asosiy muammo shundaki, soxta saytlarni asl nusxalardan ajratish qiyin.

Soxta havolalarni quyidagi belgilar orqali tanib olish mumkin:

- biror mashhur kompaniya nomi qo'shilgan, uzun internet manzil (domen nomi)
- orfografik xato ko'pligi va noqulay dizayn
- bank kartalari va tasdiqlash kodlarini olish uchun mo'ljallangan yagona sahifa



Sanoat Qurilish Bank har kimga o'z ilovasini o'rnatganingizda 2 million so'm beradi. Avvaliga o'zim ishonmadim, lekin pulimni o'rnatdim va oldim

35,5K 16:11

Uzatilgan xabar
NBUdan



NBU.apk
2,3 MB APK

NBU bank hozirda aksiya o'tkazmoqda. Ularning ilovasini o'rnatgan har bir kishi 2 million so'm oladi. Men o'zim oldim va sizga maslahat beraman!

6 231 14 641 19:31



SHUBHALI VIDEO (DEEPPFAKE)

Firibgarlar fuqarolarning ishonchiga kirish uchun sun'iy intellekt texnologiyasini qo'llagan holda Markaziy bank va boshqa tijorat banklarining rasmiy saytlarida joylashtirilgan xodimlarning rasmlaridan foydalanib soxtalashtirilgan video qo'ng'iroqni amalga oshirmoqda.

Bunda firibgarlar Telegram messenjeri orqali videoqo'ng'iroq qilib, o'zini bank xodimi sifatida tanishtirib, mobil ilova orqali fuqaroning rasmiylashtirilgan onlayn kreditini bekor qilib berishini aytadi va buning uchun fuqaro ham messenjerda videoqo'ng'iroq orqali bog'lanishini talab qiladi.

Ushbu vaziyatda firibgar videoqo'ng'iroq orqali fuqaro nomidan mobil ilovaning biometrik identifikatsiya tizimidan o'tib, uning nomiga onlayn kredit (mikroqarz) rasmiylashtirmoqda.

Sun'iy intellekt texnologiyasi yordamida yaratilgan soxta videoqo'ng'iroq



ENG ASOSIY TAVSIYALAR



Telefon raqamingizga kelgan bir martalik tasdiqlovchi kodni (OTP) hech kimga oshkor qilmang



Bank kartangizning amal qilish muddati va mobil ilovalarga kirish huquqini beruvchi login va parollaringizni sir saqlang va oshkor qilmang



Sizga qo'ng'iroq qilib o'zini Markaziy bank yoki boshqa tijorat banklari va to'lov tashkilotlarining xodimi deb tanishtirib, bank karta ma'lumotlaringiz hamda telefoningizga kelgan bir martalik tasdiqlovchi kod (OTP)ni so'rsa, darhol aloqani uzing (holatni aniqlash uchun bankning rasmiy saytida berilgan telefon raqamlariga qo'ng'iroq qiling)



Mobil qurilmangizni boshqarish huquqini beruvchi dasturlarni yuklamang va boshqarish huquqini hech kimga bermang



Telegram messenjeri orqali kelgan soxta havolalarga kirmang hamda ilovalarni yuklab olmang va mobil qurilmangizga o'rnatmang



Sizga Telegram messenjeri orqali videoqo'ng'iroq qilib o'zini bank xodimi deb tanishtirsa va sizni ham videoqo'ng'iroq orqali muloqotga chorlagan bo'lsa, darhol aloqani uzing. Begona shaxslar bilan videoqo'ng'iroq orqali muloqotga kirmang



Ijtimoiy tarmoqlarda shaxsingizga doir va bank karta ma'lumotlaringizni qoldirmang